

## Google scholar dagi h-index va i10-index aslida nima?

*Google scholar nima? Uning afzalliklari va ilmiy ishlar uchun imkoniyatlari:*

Google Scholar — bu tadqiqotchilar va ilmiy xodimlar uchun mo‘ljallangan bepul qidiruv tizimi bo‘lib, u ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, kitoblar, konferensiya materiallari va boshqa ilmiy manbalarni qidirish va topish imkonini beradi. Google Scholar orqali foydalanuvchilar ilmiy ishlari haqida batafsil ma’lumot olishlari, iqtiboslar sonini kuzatishlari va o‘z ilmiy maqolalarini keng jamoatchilikka taqdim etishlari mumkin.

*h-index o‘zi nima va nima uchun kerak?*

Hirsh indeksi yoki h-indeks 2005 yilda San-Diegodagi Kaliforniya universiteti argentina-amerikalik fizik Xorxe Xirsh tomonidan dastlab fiziklarning ilmiy samaradorligini baholash uchun taklif qilingan ilmiyometrik ko‘rsatkichdir. Xirsh indeksi - bu yakka tartibdagi olim, olimlar guruhi, ilmiy tashkilot yoki mamlakatning umumiy nashrlar soni va ushbu nashrlarning iqtiboslar (*rus: «qumama», biron bir matn yoki nutqdan so‘zma-so‘z olinib ishlatilgan parcha*) sonidan kelib chiqqan holda mehnat unumdorligining miqdoriy tavsifi.

*Xirsh indeksi qanday sanaladi?*

Keling misol tariqasida bu savolga javob topamiz. Aytaylik sizda 10 ta maqola chop etilgan, ulardan 7 tasi iqtiboslangan. Avvalo iqtiboslangan maqolalarni iqtiboslar soni bo‘yicha eng ko‘pidan eng kamiga qarab tartiblab olish kerak (maqolalar yozilgan sanalari rol o‘ynamaydi).

1-maqolada-14 ta iqtibos
2-maqolada-8 ta iqtibos
3-maqolada-6 ta iqtibos
4-maqolada-5 ta iqtibos
5-maqolada-4 ta iqtibos
6-maqolada-3 ta iqtibos
7-maqolada-1 ta iqtibos

Bu misolda h-indeks 4 ga teng bo‘ladi.


E'tibor bering to'rtinchi tartib raqamli maqolada unga qilingan iqtiboslar soni beshga teng.

1-maqolada-14 ta iqtibos  
2-maqolada-8 ta iqtibos  
3-maqolada-6 ta iqtibos  
4-maqolada-5 ta iqtibos  
5-maqolada-4 ta iqtibos  
6-maqolada-3 ta iqtibos  
7-maqolada-1 ta iqtibos

Ya'ni maqolalarni iqtiboslar soni bo'yicha eng ko'pidan eng kamiga qarab tartiblab olganimizdan so'ng, maqola tartib raqami undan olingan iqtiboslar sonidan kam bo'lgan maqolalar h-indeksga kiritiladi. Beshinchi tartib raqamli maqolada iqtiboslar soni bor yo'g'i 4 ta, demak iqtiboslar soni maqola tartib raqamidan kam, shuning uchun bu va undan keyingi maqolalar h-indeksiga kiritilmaydi.

1-maqolada-14 ta iqtibos  
2-maqolada-8 ta iqtibos  
3-maqolada-6 ta iqtibos  
4-maqolada-5 ta iqtibos  
5-maqolada-4 ta iqtibos  
6-maqolada-3 ta iqtibos  
7-maqolada-1 ta iqtibos

Google scholar va shunga o'xshash aksariyat platformalarda bu operatsiyalar avtomatik tarzda bajariladi :



**Khasan Topilov**  
 Другие имена »  
 Nordic International University  
 Подтвержден адрес электронной почты в домене nordicuniversity.org - Главная страница  
 economics project management <https://orcid.org/0009-0001-...>

Подписаться

Процитировано

	Все	Начиная с 2019 г.
Статистика цитирования	109	109
h-индекс	4	4
i10-индекс	3	3

НАЗВАНИЕ	ПРОЦИТИРОВАНО	ГОД
Landscape Financial Distress One Decade: Bibliometric Analysis LS Mulatsih, T Khasan Journal of Economic Global 1 (2), 104-109	38	2024
Citizen Participation in Developing Community Empowerment in Tourist Villages R Yusuf, W Widiarani, B Lizein, MHB Rahmat, T Khasan Journal of Social Science Global 1 (1), 43-48	32	2023
Methods in Searching Knowledge: An Exploration in Philosophy of Science K Topilov Nordic_Press 1 (0001)	31	2024
The Effect of Financial Inclusion on Financial Literacy FA Triansyah, N Nofriansyah, T Khasan Journal of Multidisciplinary Global 1 (2), 179-189	6	2024
WEBOMETRICS reytingida universitetlar o'rmini mustahkamlash bo'yicha o'quv qo'llanma K Topilov Nordic_Press 1 (0001)	2	2024
СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОГО КОНКУРСА «ЛИДЕР ХХІ ВЕКА: ЛУЧШИЙ СТУДЕНТ» K Topilov		2024

*i10-index aslida nima?*

Bu savolga javob juda oson, i10-indeksiga maqolalar iqtibosi o'nta va undan ko'p bolgan maqolalar kiritali

Misol:

1-maqolada-44 ta iqtibos  
 2-maqolada-28 ta iqtibos  
 3-maqolada-16 ta iqtibos

4-maqolada-5 ta iqtibos  
 5-maqolada-4 ta iqtibos  
 6-maqolada-3 ta iqtibos  
 7-maqolada-1 ta iqtibos

Ushbu rasmda i10-indeksi 3 ga teng.

Chunki chop etilgan 7 ta maqoladan 3 tasidagina iqtiboslar soni 10 va undan ortiq.